Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine

J Chem Good Trad Med, Volume 4, Issue 3, 2025 Chemistry of Goods

O‘ZBEKISTONDA YARATILGAN TOVARLAR KIMYOSI VA XALQ TABOBATI FANLARI, HAMDA ULARNING DUNYO ILM-FANI RIVOJLANISHIDA TUTGAN O‘RNI

Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov
Andijon davlat universiteti, Kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ixtirochi, O‘zbekiston TABOBAT Akademiyasi raisi
https://orcid.org/0000-0003-1625-0330
E-mail: tabobat_akademiya@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss3.2025.556

Kalit so'zlar:
Tovarlar kimyosi, Xalq tabobati, innovatsion g‘oya

Annotatsiya
Mazkur maqolada O‘zbekistonda yaratilgan “Tovarlar kimyosi” va “Xalq tabobati” fanlarining shakllanishi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Yangi fanlarning iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash va xalqaro hamkorlik rivojiga qo‘shgan hissasi ilmiy misollar bilan asoslab berilgan.

Havola uchun
Asqarov, I. R. O‘ZBEKISTONDA YARATILGAN TOVARLAR KIMYOSI VA XALQ TABOBATI FANLARI, HAMDA ULARNING DUNYO ILM-FANI RIVOJLANISHIDA TUTGAN O‘RNI. Tovarlar Kimyosi Va Xalq Tabobati Jurnali, 4(3). https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss3.2025.556

Ma’lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan barcha sohalar qatori ilm-fan sohasiga juda katta e’tibor qaratildi, istiqbolli islohotlar amalga oshirildi. Davlatimizning ilm-fan borasida dunyo miqyosida o‘ziga hos o‘ringa ega bo‘lishida mamlakatimizda yangi fanlarning yaratishi ma’lum darajada sabab bo‘ldi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida kimyo fanlari tizimida 20 ta fan bo‘lib, shulardan 19 tasi Yevropa va Amerika qit’alari olimlari tomonidan yaratilgan. 1997 yilda yigirmanchi fan – “Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida tasniflash va sertifikatlash” (hozirda “Tovarlar kimyosi”) fanini biz, akademik T.T.Risqiev bilan hammualliflikda pasportini yozib, O‘zbekiston Revpublikasi Oliy attestatsiya komissiyasiga taklif etdik. Taklif OAK tomonidan ma’qullanib, 02.00.09 shifri bilan rasmiy ro‘yxatga olingan, dunyoda birinchi marta O‘zbekistonda kimyo fanlari tizimida yaratilgan yangi fan paydo bo‘ldi. Mazkur fan bo‘yicha kimyo va texnika fanlari bo‘yicha ilmiy daraja va ilmiy unvonlar beriladigan bo‘ldi. Hozirgacha mazkur fan bo‘yicha 30 dan ortiq fan doktorlari, 50 dan ortiq fan nomzodlari va falsafa doktorlari, dotsentlar, professorlar etishib chiqqan.

Tovarlar kimyosi yaratilgandan so‘ng nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyodagi 50 dan ortiq rivojlangan mamlakatlarda tovarlarga ularning kimyoviy tarkibi asosida “Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi” bo‘yicha xalqaro tovar kod raqamlari belgilana boshladi. Bu esa, birinchi navbatda davlatning, iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilinishiga, hamda mamlakatimizdan tovarlarni noqonuniy olib chiqib ketish va olib kirilishini to‘xtatishga sabab bo‘ldi. Buning natijasida, birgina 2020 yilning o‘zida Tovarlar kimyosi fanining mamlakat iqtisodiyotiga keltirgan iqtisodiy foydasi 83 mlrd.ga etdi. Bu esa, Xalqaro miqyosda mamlakatlar iqtisodiyotining havfsizligida va yuksalishida yangi fanning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda xalq tabobatining rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan xalq tabobati sohasini rivojlantirish va tartibga solishga doir qarorlarning qabul qilinganligi, mazkur sohaning rivojlanishida renesans bo‘ldi deb bemalol aytish mumkin. Mamlakatimizda mazkur sohaning rivojlanishiga bo‘lgan e’tibor va yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalangan holda 2019 yilda biz, tib.f.d., professor N.S.Mamasoliev bilan hammualliflikda tibbiyot fanlari tizimidagi yangi 41-fan – “Xalq tabobati” fanini pasportini yozib, OAKga taklif etdik. Tegishli tartibdagi o‘rganishlardan so‘ng, dunyoda birinchi marta “14.00.41” shifri bilan “Xalq tabobati” fani rasmiy ro‘yxatga olindi, hamda mazkur fan bo‘yicha tibbiyot, kimyo, farmasevtika fanlaridan ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar beriladigan bo‘ldi. “Xalq tabobati” fani paydo bo‘lganiga ko‘p o‘tmay, Andijon davlat universiteti huzurida 02.00.09 – “Tovarlar kimyosi” va 14.00.41 – “Xalq tabobati” ixtisosliklari bo‘yicha kimyo fanlaridan fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini beruvchi, Andijon davlat tibbiyot institutida mazkur ixtisoslik bo‘yicha tibbiyot fanlaridan ilmiy darajalar beruvchi ixtisoslashgan Ilmiy kengash tashkil etildi. Hozrgacha mazkur Ilmiy kengashda 14.00.41-Xalq tabobati ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiya himoya qilib, 10 dan ortiq fan doktorlari va 20 dan ortiq falsafa doktorlari etishib chiqdi. Mamlakatimizda Xalq tabobati fanining yaratilishi, mazkur fan bo‘yicha ilmiy darajali olimlar – fan doktorlari va falsafa doktorlarining etishib chiqishi O‘zbekistonning Xalq tabobati sohasi bo‘yicha dunyodagi etakchi mamlakatlar qatoriga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

Xalq tabobati fani yaratilishi bilan dunyoning etakchi mamlakatlaridagi nufuzli olimlar tomonidan mazkur sohada hamkorlik qilish borasida takliflar tusha boshladi. Natijada, biz, k.f.d., professor R.Nuriddinov, hamda bir qator chet ellik olimlar – Kanadaning Toronto Universiteti professori F.Polyak, Latviya Fanlar Akademiyasi prezidenti, akademik I.Kalvinshlar bilan hamkorlikda o‘simlik moddalari asosida dunyoda birinchi marta virusli kasalliklar profilaktikasi uchun “AC-CURCUMIN”, “ANTICOVIR”, “ANTIVIR 101”, “ACKOROVIR” va “NONI ANTIVIR” kabi yangi tabbiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini ixtiro qildik. Ushbu kuchli ta’sirga ega bo‘lgan biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ma’qullanib, mahaliy farmasevtika korxonasida ishlab chiqarilmoqda va amaliyotda qo‘llanilmoqda.

Xulosa qilib, O‘zbekistonda “Tovarlar kimyosi” va “Xalq tabobati” fanlarining yaratilishi mamlakat ilm-fani va iqtisodiyotining yuksalishida va dunyo miqyosida o‘ziga hos o‘rinni egallashida, aholi salomatligini ilmiy asosda muhofaza qilishda muhim ilmiy, amaliy, iqtisodiy ahamiyat kasb etadi deb bemalol aytish mumkin.

Adabiyotlar

1. Asqarov I.R., Qirg‘izov Sh.M., Karimqulov Q.M., Abdug‘aniev B.Yo., Jo‘raev A.M., Imomova M.Yo. Tovarlar kimyosi: darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 368b.

2. Asqarov I.R. Tovarlar kimyosi (monografiya). Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. – Toshkent 2021. – 775 b.

3. Asqarov I.R. Tabobat qomusi. Mumtoz so‘z. Toshkent – 2019. -1590b.

4. Asqarov I.R. Sirli tabobat. – T: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2021. – 1084 b.